

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12569825>

“URUSHNING SO‘NGGI QURBONI”DA URUSH SALBIY OQIBATLARI BADIY TALQINI

Muhammadova Maftuna

Jizzax DPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada urushning inson qismatiga, taqdiriga fojiali ta’siri masalasi O’tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurban” hikoyasi misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Urush, fojia, obraz, tasvir, talqin, portret, baxt, oila, ona, aka-uka, xarakter.

Barchamiz bilamizki, 1941-1945 yillar oralig’ida nafaqat bizning yurda balki, dunyoning barcha mamlakatlarida og’ir judolik bo‘ldi. Bu urush qanchadan qancha insonlarni yostig’ini quritdi, qanchadan qancha bolalarni yetimga aylantirdi, qanchadan qancha yuzlar bu urish yillarida tabassum nimaligini unitdi, hatto qarindoshlar bir-birlaridan yuz o‘girishga majbur bo‘ldi. Urush har bir oila boshiga misli ko‘rilmagan kulfatlar kelishiga sabab bo‘ldi. XX asr o‘zbek nasrining yetuk vakili O’tkir Hoshimov “Urushning so‘nggi qurban” hikoyasida adib xuddi shu urush fojialarini mahorat bilan qalamga oldi. O‘zbek va jahon adabiyotida urush mavzusida juda ko‘plab asarlar yaratilgan va bugungi kunda ham ijod qilinib kelinmoqda. Ammo ushbu badiiy asarlar orasida O’tkir Hoshimovning mazkur hikoyasida alohida salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. “Urushning so‘nggi qurban” asarida obrazlar portreti ham o‘ziga xosdir. “Urushning so‘nggi qurban” asari bir-biriga o‘xshamas xarakterli qahramonlardan tashkil topgan. Barcha obrazlarning o‘z tashvishlari, o‘y-fikrlari, qiyinchiliklari mavjud. Asardagi o‘sha davr odamlarining fojialariga bosh sabab urush ekanligi ayon bo‘ladi. Baxtdan tabassum qilishdan to‘xtamaydigan yuzlarga, qaytib kulishiga izn bermagan, bir kunda qora sochlarni oqartirgan-urush. Bu asar qahramonlari ham urush bo‘lishini va guldek oilalariga putur yetishini hech o‘ylab

ko‘rishmagan. Hikoya boshida asar voqealari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Asarning boshidayoq salbiy holatlar tasvirlangan, barcha narsalar asardagi voqealar rivoji ijobjiy ketmasligiga ishora qilardi. Asardagi bosh qahramonlar- Shoikrom, Shone’mat, Umri xola va Xadicha. Shoikrom oilaning katta farzand bo‘ladi. Oilaning eng kichik vakili Shone’mat Shoikromning ukase hisoblanadi. Asardagi Umri xola Shoikromning onasi, Xadichaning esa qaynonasi sanaladi. Shoikromning otasi erta olamdan ko‘z yumgan va Shone’matni Shoikrom va Umri xola ikkasi katta qilishgan. Urush boshlanganda barcha oiladan erkaklarni urushga olib ketishgan. Lekin bu oiladan hech kim urushga bormagan. Shoikromni to‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasligi sababli olib qolishdi. Shone’mat bo‘lsa sil kasaliga chalinganligi sababli urushga jo‘natilmadi. Qarangki, urush shuncha uzoqda bo‘lsa ham uning sovug’i bu oilaga ham kirmasdan qoladi. Qimmatchilik, qahatchilik sababli xalq och qoldi o‘g’rilar ko‘paydi. Xattoki, odam o‘ldirib uyidagi narsalarini olib chiqib ketadigan odamlar ham paydo bo‘ldi. Urush juda ko‘plab begunoh insonlarning bevaqt olamdan ko‘z yumishiga, yana ko‘plab odamlarning iymonidan putur ketishiga sabab bo‘ldi. Urush paytida har bir inson o‘zini o‘ylaganligini shu asar orqali yaqqol ko‘ramiz. Urush onani boladan, otani o‘g’ildan, akani ukadan yuz o‘girihsiga ham ayrim o‘rinlarda sababchi bo‘lganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu juda achinarli holat, lekin bu ishlar uchun u insonlar ham aybdor emas. Barchasiga urush aybdor-Urush!!!

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen slogan alam.

Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Xadicha o‘zi qurumsoq bo‘lgan urush boshlangan keyin yanada bu hislati oshdi deb tariflangan. Lekin o‘ylab qarasak ona bo‘lish osonmi uch bolani boqish kerak ayniqsa urush yillarida. Hikoyada muallif Umri xola obrazida mehribon va xokisor o‘zbek onasi siyimosini mujassam etgan. Shone’mat o‘lishini bilsada bolasi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Uni tuzalib ketishi uchun kim nima desa sinab ko‘radi. Umri xolani birdan bir niyati o‘g’lini yana sog’lom ko‘rish edi. Lekin urush tufayli oziq

ovqat tanqis edi. Umri xola o‘g’lini tuzalishi uchun Shoikromning xovlisidagi qulupnayni qo‘y sutiga almashtira boshlaydi. Oziq-ovqat kam paytda barcha o‘z oilasini, bolalarini o‘ylaydi. Shoikrom ham ataylab emas, jahl ustida qulupnay ariqchasiga tok simini tashlab qo‘yadi. Shoikrom ham o‘z navbatida farzandining rizq nasibasi uchun harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ming asfuslar bo‘lsinki, Shoikrom o‘z onasini qotiliga aylanadi. Bu ne ko‘rgulik. Urush juda ko‘plab insonlar taqdiriga qora ko‘lanka olib kirdi. O‘z jigaridan xabar olmay qo‘ygan aka-ukalar, o‘zлari bilmagan holda ota-onalarini o‘lishiga sababchi bo‘lgan bolalar, yoki yaqin insonlari ko‘z o‘ngida jon bergen insonlar tasvirlangan bu asarda. Abatta, ushbu asar urush haqidagi tasavvurlardan xamir uchidan patir. Haqiqatan ham urush davrida bundanda ayanchli taqdirlarga insonlar guvoh bo‘lishgan. Asarda qiyinchilik inson ma’naviyatini sinovdan o‘tkazish vositasi ekanligining ko‘rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirklanganligi. Yo‘qchilik onani boladanm og’ani inidan sovutganliginining ta’sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma’naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Umri xola, Shoikrom, Shone’mat hamda Xadicha obrazlariga xos jihatlarning yorqin bo‘yoqlarda talqin etilganligi.

Yozuvchining “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi urush va uning fojiali oqibatlari haqida. Ochlik, muhtojlik odamlarni bir-biriga dushman qilib qo‘ydi, yana ayrimlarni qing’ir yo‘lga boshladi. Aka-uka, ona va farzand o‘rtasidagi muqaddas oilaviy munosabatlarga ham putur yetkazdi. Hikoyada mana shu jarayonlar o‘z ifodasini topgan. Hikoya quyidagi tasvir bilan boshlanadi: “Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to‘g’rida hech kim o‘ylab ko‘rmagananini u endi payqaganday g’ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog’i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog’och qoshiq ham, uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi”.¹ Ushbu jumlalar orqali hikoya qahramoni Shoikromning ruhiy holati qisqacha tasvirlanadi. Bu tasvirdan

¹ Hoshimov O‘. Uzun kechalar. – T: “O‘ZBEKISTON”, 2018 – 34-bet

qahramonning asabiy, tajang kayfiyati ko‘rinadi. Undagi bu noxush kayfiyatning sabablari voqealar rivoji davomida ma’lum bo‘ladi: urush hamon davom etmoqda. “Garchi urushning qora qanoti uzoqlab, erta-indin Gitlerning to‘ng’iz qo‘pishi ko‘rinib qolgan bo‘lsa ham, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turgan, hali u qo‘shnininikida, hali bu qo‘shnininikida aza ochilayotgan” kunlar. Ayrim sabablarga ko‘ra urushga bormagan, to‘qimachilik kombinatida montyor bo‘lib ishlaydigan Shoikrom bir hovlida bo‘la turib sil kasali bilan og’rib yotgan ukasi Shone’matning holidan xabar ololmaydi. Bir yil avval hovliga ekilgan qulupnay tufayli Shoikromning xotini Xadicha va onasi Umri xola o‘rtasida nizo kelib chiqqan. Qolaversa, atrofda o‘g’ri ko‘paygan: “Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqqandan buyon o‘g’ri ko‘paydi. Ertabahorda ularning tug’ay deb turgan sigirini o‘g’irlab ketishdi. O‘sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan yomg’ir sharros quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda ko‘ngli g’ash tortib, bir nimani sezganday uyga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o‘tiribdi. Xadicha og’iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko‘cha eshigi lang ochiq, yong’oqda bog’log’liq sigir yo‘q. “Shu paytgacha sigir tug’ardi, ukamning og’ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. – Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”.¹ Shoikromning ushbu alamzadalik holati fojianing boshlang’ich nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Urush va u bilan bog’liq obrazlar ishtirok etgan asarlar juda qadimiy tarixga va o‘ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega. Bunday asarlardagi g’oya va qahramonlarning xususiyatlari davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari ta’sirida o‘zgarib borgan. Badiiy adabiyotda urush tasvirlari dastlab qahramonlik va jasorat vositasi sifatida tasvirlangan. Urushda shaxsan ishtirok etgan va bu urushni chetdan kuzatgan ko‘plab yozuvchi va shoirlar keljak avlodga bu voqealar haqida o‘z asarlari orqali ro‘y-rost xabarlar berishdi. U o‘zining bir qancha asarlarida urush va u yerda ko‘rgan turli voqealarni jonli tarzda tasvirlab bergan

¹ Hoshimov O‘. Uzun kechalar. – T: “O‘ZBEKISTON”, 2018 – 38-bet